



Савол:

Men uylanganman. Ayolim esa ayni paytda men turgan davlatda emas. Agar men internet orqali u bilan (gaplashib) o'tirsam va u meni jasadimni ba'zi joylarini ko'rishni istasa va hokazo... Shunda menga gunoh bo'ladimi? Buni hukmi nima?

Жавоб:

Allohga hamd bo'lsin! Shunga o'xshagan bir savolni Shayx Muhammad Solih al-Usayminga arz qilgan edik. Bu ana shu savolning matni: "Er-xotin telefon orqali jinsiy aloqa to'g'risida gaplashishlari va bir-birlarini shahvatini keltirishlari, hatto ulardan birining yoki ikkalasining ham shahvati chiqib ketishi joizmi? (Qo'lni ishlatmasdan. Chunki qo'lni ishlatish harom-ku.) Bunday bo'lishining sababi erim doimo safarda bo'ladi. Biz har to'rt oyda bir ko'rishamiz."

Shayx quyidagi so'zlari bilan javob berdilar: "Hechqisi yo'q. Ha, bu ish joizdir.

Savol: Agar qo'lni ishlatib bo'lsa hammi?

Javob: Qo'lni ishlatishda shubha bor. Agar zino qilib qo'yishdan qo'rqasagina joiz bo'ladi.

Savol: Qo'lni ishlatmasdan bo'lsa mone' yo'qmi?

Javob: Ha. Qo'lni ishlatishsiz bo'lsa mone' yo'qdir. U o'zini xotinim bilanman - deb tasavvur qiladi. Buning hechqisi yo'q."

Lekin bundagi xatar - internet orqali bo'layotgan bunaqangi

"uchrashuvlar"ni kuzatib turish va ko'rib turish mumkinligidir. Qolaversa, bu ish qo'li bilan shahvatini chiqarishi va shunga o'xshagan boshqa harom ishlarni qilishga ham undaydi. Bu ishni qilmaslik ehtiyotlikdir. Chunki Rosululloh sollallohu alayhi va sallam aytganlar: "Gunoh amallar Alloh



Ислом Нури

Er ayolidan internet orqali lazzatlanishi | 2

taoloni chegarasidir. Kim chegara atrofida bemalol yursa u chegarani bosib o'tishi mumkin." (Buxoriy: №1946). Allohu A'lam.
Islom - savol va javob № 90099 Shayx Muhhamd Solih al-Munajjid